



## FAN MAVZULARINI TAHLIL ETISHDA “VEER” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**Nazokat Jiyanova,**

*O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fan bo‘yicha mavzu tahlilida “Veer” texnologiyasidan foydalanishning amaliy ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, “O‘zbek tilining amaliy uslubiyati” darslarida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish uchun o‘qituvchi qanday qoidalarga amal qilishi lozimligi ham misollar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** uslub, til, natija, tahlil, nazariy bilim, tilning lingvopoetik xususiyatlari, didaktik xususiyatlariga, o‘qitish tizimi, zamonaviy usullar, samarali yo‘llar, bilim, baho, tahliliy yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается практическое значение использования технологии «Вeer» при анализе предмета по предмету «Естествознание». Также на примерах показано, какими правилами должен руководствоваться учитель при проведении уроков с использованием новых современных педагогических технологий на уроках по предмету «Практическая методика преподавания узбекского языка».

**Ключевые слова:** стиль, язык, результат, анализ, теоретические знания, лингвопоэтические свойства языка, дидактические особенности, система обучения, современные методы, эффективные способы, знания, оценка, аналитический подход.

**Abstract:** This article discusses the practical importance of using the "Veer" technology in the analysis of the subject in science. It also illustrates, using examples, what rules a teacher should follow to conduct lessons based on new modern pedagogical technologies in the "Practical Methodology of the Uzbek Language" lessons.

**Keywords:** style, language, result, analysis, theoretical knowledge, linguopoetic properties of language, didactic features, teaching system, modern methods, effective ways, knowledge, assessment, analytical approach.

**Kirish.** Bizga ma’lumki, respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng islohatlar “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va qarorlar har bir ta’lim beruvchilar oldiga muhim amaliy masalalarni yechish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shundan kelib chiqqan holda o‘qitish tizimida bunday dolzarb muammolarni ijobiy hal etish va hayotga tatbiq qilish ishlari qadamma-qadam amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda barcha oliy ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchilar o‘qitishning zamonaviy usullari, jahon va respublikamizda sinovdan o‘tgan ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tishmoqda. Bunday o‘qitishning amaliy ahamiyati har bir o‘tilayotgan darsning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuning uchun ham ulardan o‘rinli foydalanish muhim vazifalardan biridir.

Shu kungacha pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. U texnik vositalar haqidagi ta’limot hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish



deb talqin qilingan. Pedagogik texnologiyalar atamasiga 300 dan ortiq ta'rif berilgan bo'lsada yakdillik bilan berilgan ta'rif mavjud emas.[3.6.].

**Adabiyotlar tahlili.** Rus olimi V.P.Bespalkoning fikricha pedagogik texnologiya – bu o'qitish mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir"[4.92.]. Shuningdek, rus olimi V.M.Monaxov esa: "Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", degan fikrni ilgari suradi.[3.6.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy-uslubiy yondashuv hamda sistem-lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Manbalarni o'rganishda tavsifiy metod asos qilib olindi, asosiy nazariy qarashlar ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy lingvokulturologik izlanmalar asosida umumlashtirildi. Tahlil jarayonida materiallar saralanib, mazmuniy-aksiologik talqinlar orqali ilmiy xulosalar chiqarildi.

**Tahlil va natijalar.** Olimlarning fikrlaridan ham bilish mumkinki, pedagogik texnologiyaga turlicha ta'riflar berilgan. Muhimi bu emas, balki ta'lim beruvchi ulardan dars jarayonida qanday foydalana olganligidadir. Ushbu maqolamizda "Veer" texnologiyasining dars jarayonida foydalanishning afzalliklari xususida fikr yuritimiz.

"O'zbek tilining amaliy uslubiyati" darslarida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish uchun o'qituvchi qanday qoidalarga amal qilishi lozim degan savolning tug'ilishi tabiiy. Eng avvalo, o'qituvchi:

1. Tilning lingvopoetik, didaktik xususiyatlariga e'tibor berishi;
2. Mavzu tahlilida zamonaviy metodlardan o'rinli foydalanishi;
3. Dars jarayonida qiziqarli o'quv materiallarini o'ylab topishi va zamonaviy o'qitish metodiga bog'lagan holda olib borishi;
4. Talabalarning bilimni baholashda adolat mezonlaridan o'rinli foydalana olishi;
5. O'qitish tizimida slaydlar, vediolavhalar, mavzuga doir qiziqarli matnlardan foydalana olishi;
6. Talabalarning yozma savodxonligini oshirishning oson yo'llarini ishlab chiqishi;
7. Har bir talaba bilan alohida ishlashni to'g'ri rejalashtirishi;
8. Fan bo'yicha beriladigan mustaqil ta'lim mavzularini talabalar tomonidan tahlil etishlariga yo'naltirishi va nazorat qilib borishi zarur.

O'qitish jarayoni shuni ko'rsatdiki, talabalar turli matnlarni o'qishlari, o'z tafakkurlari doirasida tushuna olishlari mumkin, biroq matn ustida ishlash yo'llarini bilishmaydi. Chunki matn ustida ishlashning o'ziga xos uslubiy yo'llari mavjud bo'lib, asosan, "O'zbek tilining amaliy uslubiyati" fanida yoritib beriladi. Buning



uchun talabalar ishlash jarayonida tahlil etayotgan matnning qaysi tomonlariga e'tibor berishlari kerak bo'ladi:

- Beriladigan matnlarni qaysi uslubga xosligini bilishlari;
- Matnni uslubiy jihatdan tahlil eta olishi;
- shoir yoki yozuvchining so'z qo'llash mahorati haqida o'z fikr-mulohazasini bera olishi (Agar matn badiiy uslubga xos bo'lsa);
- matnga ijobiy va tanqidiy munosabat bildirishi;
- Mantda qanday til birliklaridan foydalanilganligi;
- Ularni to'g'ri tahlil etishlari kerak.

“O‘zbek tilining amaliy uslubiyati” darslarining asosiy maqsad va vazifalari ham talabalarda matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun ham har bir dars jarayonida o‘tiladigan mavzularga mos ravishda turli matnlar berib borish va tahlilga tortish zarur. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida birinchidan, turli uslubga xos matnlarni topib ularni uslubiy farqlarini ajratib olishlari uchun talabalarga vazifa sifatida berishi va tahlilga tortishi zarur. Ayrim o‘rinlarda matnlarning uslubiy farqlarini tushuntirib borishi shart. Ikkinchidan, har bir matnning o‘ziga xos tomonlarini nazariy jihatdan tahlil etishlari uchun tushuncha berishi va talabalarda matnni tahlil eta olish ko‘nikmasini shakllantirishi zarur. Uchinchidan, har bir matn ustida ishlash jarayonida uslublararo bog‘liqlik va ayri (ya’ni farqli) jihatlarini tushuntirib berishi va talabalarda ham shunday ko‘nikmani shakllantirishga yordamlashishi zarur. To‘rtinchidan, doimo matn ustida ishlashning turli yo‘llarini izlab topishi va talabalarga vazifa sifatida berib borishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchi har bir o‘tadigan yoki o‘tayotgan mavzusiga mos matnni uslubiy tahlil etib berishi zarur. Chunki talaba o‘qituvchi tomonidan matn tahlilini ko‘rsagina, matn ustida ishlay oladi va erkin munosabat bildiradi.

Matn ustida ishlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos amaliy ahamiyati bor. Buning uchun o‘qituvchi talabalar bilan ishlash uslubini bir xilda emas, balki vaziyatdan kelib chiqqan holda o‘zgartirib turishi, yangiliklar asosida dars o‘tishi zarur. Matn ustida ishlash jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan biri sifatida qo‘llanib kelinayotgan “Veer” texnologiyasidan foydalanish mumkin. Bu texnologiya murakkab va ko‘ptarmoqli bo‘lib, muammo xarakteridagi mavzularni yoritishda va talabalardan so‘rab baholashda yaxshi natija beradi.

“Veer” texnologiyasidan foydalanishda o‘qituvchi matn ustida ishlash jarayonida nazoratchi vazifasini o‘taydi. Chunki “Veer” texnologiyasining bosh vazifasi o‘tilgan yoki o‘tilayotgan mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha to‘lig‘icha axborot berishi, yoki bir mavzu ichidagi yechilishi lozim bo‘lgan muammolar alohida holatda ham muhokamaga tortilishi mumkin. Shuningdek, tahlilga tortilgan



mavzuning ijobiy yoki salbiy jihatlari, afzallik, foyda yoki zararli tomonlari ham talaba tomonidan tushunilishi va muhokama etilishi zarur. Masalan,

Aspekt	Matn	Izohi
Afzallik	ommaboplik,	natijalilik
Fazilat	ijobiy	Ta'sir etish
Nuqson	salbiy	Ta'sir etish
Xulosa	fikr ifodasi	Yakunlovchi qaror

O'qituvchi matnlarni talabalarga tarqatadi va ulardan matnga bo'lgan o'z fikrlarini erkin mulohazalar asosida tushuntirib berishlari so'raladi. Masalan, "Leksik uslubiyat. So'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolari" mavzusida dars o'tilganda matnda qo'llanilgan til birliklarini topadi va har bir til birligi matndan olingan misollar asosida tushuntiradi. Yozuvchi leksik birliklardan qanday maqsadda foydalanganligi, qanday uslubiy vazifa bajarib kelganligi, til birliklarining vazifalari haqida ma'lumot to'playdi va matn asosida savollarga talaba o'z bilim doirasida fikr yuritadi. Talabalarning asosiy vazifasi:

1. Matnni o'rganish jarayonida talabalar yozuvchi uslubi va so'z qo'llash mahorati haqida o'z nazariy tahlillarini o'rtoqlashadilar. Bunda talabaning erkin fikri ko'proq inobatga olinishi kerak bo'ladi. Shuningdek, matnlarni farqlashadi. Agar o'qituvchi har bir talabaga turli xil matnlarni bergan bo'lsa.

2. Talabalar matn ustida ishlash jarayonida olgan bilim va tahliliy yechimlarini ketma-ketligini tartibga keltirgan holda o'z qarashlarini umumiy xulosalari asosida yakunlashadi. Talabaning xulosasi baholash mezonini uchun asos qilib olinadi. Bu esa talabada har bir o'rganayotgan mavzusi uchun erkin munosabat bildira olishi va xulosa chiqarishi uchun yordam beradi. Bu jarayonda turli matnlarga fikr ifodalash ko'nikmasi shakllanadi.

3. Asosiy tushunchalar sifatida matnni qaysi uslubga xosligi aniqlanadi. Uslubga nazariy tushuncha bergan holda o'z fikr- mulohazalarini bayon etadi. Talabaning o'z fikr-mulohazalarini bayon etishi esa og'zaki nutq ko'nikmasining shakllanishiga yordam beradi.

4. Matn ustida ishlashda talaba yozma va og'zaki javob usullaridan foydalanadi.

Bu jarayonda o'qituvchi baholashda talabaning savodxonlik darajasiga ham e'tibor berishi kerak.

Shuningdek, ta'lim jarayonidan tashqari, "Veer" texnologiyasi:

- Jamoa, guruhlarda ishlash mahoratini;
- Mavjud muammolar, vaziyatlarni turli yo'llar bilan muhokama qilishni;



- Maqbul qarorlarni o‘ylab topishni;
- O‘zgalar fikrini (garchi noto‘g‘ri bo‘lsada) hurmat qilishni;
- Berilgan ishga ijodiy yondashishni;
- Faol harakat qilishni;
- Yechimini kutayotgan muammoga jiddiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.[1.52.]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Veer” texnologiyasidan foydalanish “O‘zbek tilining amaliy uslubiyati” darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mavzularni matn asosida tahlil etishga, matn mazmunini tushunib olishlariga imkon beradi. Matn tarkibidan har bir o‘tilayotgan mavzuga mos misollarni topib, tahlilga tortish uchun talaba avvalo uslubiyat darslarining nazariy tomonlarini puxta o‘zlashtirib borishlari zarur. Buning uchun o‘qituvchi har bir mavzu yuzasidan tushuncha berayotganida matn asosida ish yuritishi va talabadan ham matn asosida tushuntirib berishini talab etishi zarur.

**Xulosa.** O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida turli vediolavhalarga yozib olingan matnlardan, ovozli tasmalardan, yaxlit holda tayyorlangan asar parchalaridan foydalansa, darsning samaradorligi yanada ortadi. Talaba ham ko‘rgan, o‘qigan va eshitgan matnga o‘z munosabatini ifodalaydi. Bu esa darsning qiziqarli bo‘lishiga va o‘qitish samaradorligining oshishiga yordam beradi. O‘qituvchi talabalar faolligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali yo‘llaridan o‘rinli va unumli foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zaruriyatdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2013- yil.
2. R.Ishmuhammedov. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2008- yil.
3. 3.X.Boymirzayev. Tarix fanini o‘qitishda pedagogic texnologiyalarni loyihalashtirish.Namangan, 2022-yil.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: «Педагогика», 1989. -С. 192.
5. E.Qilichev. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent, O‘qituvchi 1992- yil.
6. N.Jiyanova. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, “NIF MSH”, 2024- yil.